

i

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLANDI”

Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Xodjayeva
29-avgust 2025-yil

ORKESTR SINFI(O‘BEK XALQ CHOLG‘ULARI ORKESTRI)

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200 000 – San’at va gumanitar fanlar.
Ta’lim sohasi:	210 000 – San’at.
Ta’lim yo‘nalishi:	60211500 – Cholg‘u ijrochiligi (xalq cholg‘ulari(turlari bo‘yicha)

Qo‘qon 2025

Fan/modul kodi ORS1847		O'quv yili 2025-2026	Semestr 1-8	ECTS-Kreditlar 47
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim turi O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (Soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Orkestr sinfi (o'zbek xalq cholg'ulari orkestri)	660	750	1410
2.	<p>Fanning mazmuni</p> <p>Orkestr sinfi fani ko'p ovozli cholg'u simfonik orkestri, o'zbek xalq cholg'ulari orkestri, damli cholg'ular orkestri, estrada cholg'ulari orkestri yoki ansambllaruchun yuqori malakali sozanda ijrochilarini tayyorlashga asoslanadi. Orkestr sinfi ijrochilarning ko'p jihatdan takomil tarzda voyaga yetishida muhim rol o'ynaydi, xususan nafaqat mohir ijrochi, balki, keng dunyoqarashga ega sozanda ijrochi bo'lishda o'z o'rniga ega bo'ladi.</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda sa'nat sohasida faoliyat olib boradigan turli tarkibdagi orkestrlarda mohir sozanda- ijrochilik yo'nalishi bo'yicha Davlat ta'lim standartlariga asoslangan holda mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarga orkestr badiiy jamoalarida ijodiy faoliyat olib borish, madaniyat va san'at ta'lim muassalarida malakali sozanda-ijrochilarni tarbiyalashga o'rgatishdan iborat. Orkestr sinfi fani bo'yicha o'qitish jarayonida quyidagilar amalga oshiriladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Cholg'u musiqasini, o'zbek va jahon kompozitorlari ijodiga xos katta va kichik shakllardagi turli janrlardagi musiqiy asarlarni jamoaviy ijrochilik qoidalarini uyg'unlashtirgan holda yuqori darajada bajarish; - Cholg'uda yuksak ijrochilik texnika san'atini mukammal va chuqur o'zlashtirish; - Cholg'uni avaylash, asrash va hamisha soz holatda saqlash; - Jamoaviy ijrochilikda bir-birini eshitish qobiliyatini yanada izchillik bilan oshirish. <p>Fanning vazifalari, musiqiy meroslarni tinglab, cholg'ularing tuzilishi, sozlanishi, diapazoni, badiiy va texnik imkoniyatlari, rang-barang ijro usullari haqida aniq tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Faqat xalq cholg'u va ulardan tuzilgan orkestrlarning o'rganish bilan chegaralanmay, balki birinchi darslikdanoq turli orkestrlar, butun jahonga keng tarqalgan boshqa cholg'ular haqida ham kerakli bilimlarni olishlari talab etiladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Dirijyorning badiiy ifoda yuzasidan talabini bajarish; - Orkestr ijrochiligi uslublari; 			

- Repertuarni o‘rganish;
- Konsert amaliyoti haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
- Orkestr partiyalarini o‘qishni;
- Turli musiqiy asarlarning xususiyatlarini;
- Dirijyorning qo‘l harakatlarini qonuniyatlarini;
- Guruhlarining o‘zaro ansambl munosabatlarini;
- Orkestr cholg‘ularini ifoda imkoniyatlarini bilish va ulardan foydalana olishi;
- Orkestrlarda professional ijrochilik faoliyatiga tayyorgarlik;
- Orkestr partiyalarini mohirona ijro etish;
- Nota matnini o‘qishda adashmaslik;
- Orkestr partiyalarini mukammal o‘zlashtirish;
- Ovoz yozish studiyasida ish olib boorish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi:

Orkestr sinfi fani dasturi **Royal College of Music (RCM)** universitetining **“Conducting”** fakulteti **“Orkestr repertuarini o‘rganish”** (Orchestral Repertoire) moduli bo‘yicha shakllantirilgan zamonaviy o‘quv dasturlari asosida takomillashtirilgan. **Royal College of Music** —Buyuk Britaniyadagi eng yaxshi universitetlardan biridir. U QS WUR reytingida 2025-yilda mavzu bo‘yicha 1-o‘rinni egalladi. **Royal College of Music (RCM)** dunyodagi eng buyuk konservatoriyalardan biri bo‘lib, butun dunyodan iqtidorli musiqachilarni ijrochi, dirijyor va bastakorlarni tayyorlaydi.

Asosiy yo‘nalishlari:

1. Brass
2. Composition
3. Conducting
4. Historical Performance
5. Keyboard
6. Percussion
7. Strings
8. Woodwind
9. Vocal & Opera

II. Asosiy qism

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi

1-Modul.

1-mavzu. “Orkestr” faniga kirish

Orkestr sinfi amaliy tartibda guruhli dars olib boriladi. 1-kurs talabalari bo‘lsada, talabaning imkoniyatidan kelib chiqqan holda dastur o‘qituvchi tomonidan tanlanadi. Asar tanlashda ijrochilik va pedagogik amaliyotdan o‘tgan asarlar olinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ta’limning ilk bosqichida nota mahoratiga e’tibor qaratiladi.

2-mavzu: Asarni tanlash

Dirijyor yoki badiiy rahbar repertuarni tanlaydi. Tanlovda orkestrning ijro darajasi, repertuar xilma-xilligi, an'anaviylik va zamonaviylik o'rtasidagi balans hisobga olinadi. Kompozitorning uslubi, asarning shakli (syuita, konsert, kuy, rapsodiya), murakkabligi tahlil qilinadi.

3-mavzu. Nota o'qish mahorati. (sight-reading)

Nota yozmalar bilan tanishish va tahlil. Har bir cholg'u guruhiga (tor, zarbli, nafasli, dutor, rubob, surnay, doira, g'ijjak va h.k.) mos partiyalar (notalar) tarqatiladi. Dirijyor yoki pedagog tomonidan asar strukturasi, metrikasi, ritmi, temblari va dinamikasiga oid tushuntirishlar beriladi. Asardagi murakkab o'rinlar oldindan belgilab chiqiladi.

Notani o'qish mahoratini o'stirish. Talabada mustaqil ravishda mashg'ulotlar olib borish ko'nikmalarini o'rgatish, ijro dasturini shakllantishga yordam berish va o'zlashtirilgan notalarni varoqdan ravon o'qish, nota matnini aniq, tekis, savodli va erkin ijro etish. Umumiy musiqiy-nazariy bilim doirasini yanada kengaytirish. Jamoaviy ijrochilikka xos bo'lgan 2-3 ta mashqlar, 4-5 ta har xil karakter uslubidagi asarlarni ijro etish. Har bir talabaning ijrochilik imkoniyatiga, musiqiy qobiliyatiga, musiqiy bilim doirasiga tayangan holda oddiydan murakkabgacha bo'lgan ijro dasturini to'g'ri tanlashga alohida e'tibor berish kerak.

4-mavzu. Partitura tahlili

Orkestr asarlarini chuqur tahlil qilish, strukturaviy va stilistik jihatlarni o'rganish. Orkestrning turli guruhlar bilan alohida ishlash va ularni birlashtirish.

5-mavzu. Cholg'u guruhlar bo'yicha mashg'ulot

Orkestr ichida damli, urma torli, chertma torli, zarbli, yoki kamonli cholg'ular alohida guruhlarda mashq qiladi. Bu bosqichda tovush balansi, ifodaviylik, jipslikka e'tibor qaratiladi.

6-7 mavzu. Partiya ustida ishlash.

Partiya ustida ishlash asarni tayyorlash jarayonining eng muhim bosqichlaridan biridir. Asosiy ma'noni ishonchli vositalar bilan ifodalab berish bosh maqsad hisoblanadi. Asar karakteri, obrazlari, dramaturgiyasini tahlil qilish, uning ma'nosini tinglovchilarga yetkazib berishda ijrochiga yordam beradi. Partiya ustida dirijyordan qizg'in mehnat, sabr-toqat va qiziquvchanlikni talab qiladi. Bu jarayonni bir necha bosqichlarga ajratish mumkin. Bundan tashqari partiyaning dinamikasi, sur'ati, metronomi, ritmini ham nazariy jihatdan o'rganiladi.

2-Modul.

7-mavzu. Mashg'ulotlarni olib boorish.

Talabaning mustaqil mashg'ulotlarda orkestr va uni tashkil etish metodikasi san'atiga ongli munosabati yetakchi vazifani o'taydi. Cholg'uda ijroni o'rganish jarayonida yaxshi yo'lga qo'yilgan, muntazam ravishda amalga oshiriladigan uy mashg'ulotlarining ahamiyati juda kattadir. Bunda mashg'ulotlar davomida o'quvchida mehnatga bo'lgan ongli munosabat shakllanib boradi. Ba'zi o'qituvchilar o'z o'quvchilariga keragidan ortiq homiylik ko'rsatib, ularni mustaqil mehnat qilishlariga halaqit beradilar.

8- mavzu. Orkestr uchun yaratilgan asarlar.

Orkestr uchun yaratilgan asarlar janri xilma-xilligi haqida o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun ijod qilishda ijod qilishda yoki cholg'ulashtirishda e'tiborda bo'lishi zarur bo'lgan xususiyatlari. Mustaqil ishlar talabalar tomonidan mustaqil ijro shakli sifatida tashkil etiladi. Musiqiy konsert dasturlari, teatr va sahna asarlarini kuzatish shakllari orqali o'rganilayotgan asarlar ustida ishl olib boriladi. Har bir asar mustaqil holda audio, CD, DVD disklardagi ijrolardan foydalangan holda o'rganiladi.

9- mavzu. Dasturning information uslubiy ta'minoti.

Mazkur fanni o'zlashtirishda ta'limning zamonaviy metodlari (xususan interfaol) pedagogic va axborot komunikatsiya texnologiyalari ijodiy o'quv jarayonida unumli qo'llaniladi. Axborot-resurs markazlari kompyuterlari, "internet", "ziyonet" kabi axborot resurs tarmoqlari, maxsus veb-saytlar saxifalaridan unumli foydalanish, fonoteka va videoteka jamg'armasidan, repertuarlaridan, o'quv laboratoriyalari, ovoz yozuv studiyalari, teleradiokompaniya kanallari va konsert zallaridan, maxsus o'quv adabiyotlar – darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, metodik tavsiyalar, nota grafikasi yuzasidan amaliy kompyuter dasturlaridan keng foydalanish nazarda tutiladi.

10- mavzu. Orkestr partiturası tarkibiga (simfonik, o'zbek xalq cholg'ulari, puflama va zarbli, Estrada orkestri) kirgan cholg'ular.

Bu talabga simfonik, o'zbek xalq cholg'ulari, puflama va zarbli, estrada jamoalari tarkibiga kiruvchi cholg'ular o'rgatiladi. Bunda transport qilinuvchi cholg'ular haqida to'liq ma'lumot beriladi. Damli cholg'ular orkestrida transport qilinadigan va qilinmaydigan cholg'ularga bo'linadi. Yozilgan notani chalganda boshqa ohangdoshlik (tonallik) eshitilsa, cholg'u birinchi guruhga mansub hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda boshqa orkestr tarkibidagi cholg'ularni ham ikki guruhga bo'lib o'rgatiladi.

11-mavzu. Dinamik belgilar.

Dinamika – eshituvchiga kuchli emotsional ta'sir ko'rsatuvchi ijro yo'nalishidir. U har doim musiqa asarining mazmunidan kelib chiqqan holda ishlatiladi. Talabaga turg'un dinamika, dinamikaning asta-sekin o'zgarib borishi va dinamikaning birdan o'zgarishi haqida tushunchalar beriladi.

12-mavzu. Jumlanı ifodali belgilari. orkestr etiketasi va professional talaffuz.

Ifoda belgilari jumlaning kuchli ta'sir ko'rsatuvchi ijro yo'nalishidir. U har doim musiqa asarining mazmunidan kelib chiqqan holda ishlatiladi. Talabalarga ifoda etuvchi belgilarni to'g'ri ijro etish ularni o'zgarib borishi va jumlar haqida tushunchalar beriladi.

3-Modul. Musiqiy oqimlar va janrlar.

13-mavzu. Vena klassik maktabi namoyondalari asarlari bilan tanishish.

Vena klassik maktabi namoyondalari asarlari misolida, takt oldi harakatlari va ularning turlari shuningdek, sinkopa va fermatolarining turlarini ijrochilarga to'g'ri ko'rsatish ko'nikmalari hosil qilinadi.

14-mavzu. Musiqiy janrlar.

Bu talabda musiqiy janrlar bilan tanishtiriladi. Opera, balet, simfoniya, uvertura, konsert, poema, fantaziya va v.k.z larni mazmunan tushuntiriladi. Vena klassik namoyondalarining turli musiqiy janrlarda yaratgan asarlari bilan yaqindan tanishtiriladi. Har xil musiqiy janrlarga oid parchalar keltirib amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Masalan, operadan yoki baletdan. Uvertura, syuita yoki simfoniya dan biror bir qism talabaga beriladi.

15-mavzu. Fermataning turlari.

Nota, akkord, pauzalar ustida joylashib, ularning vaqtini ma'lum darajada uzaytiradigan belgi – fermata deyiladi. Uning ikki turi: butun asarning yoki qismining oxirida paydi bo'ladiga fermatalar, musiqiy fikr yozilishini o'rtasida qisqa muddatda to'xtaydigan fermatalar haqida tushunchalar beriladi.

16-mavzu. Transport qilinadigan cholg'ular.

Orkestr tarkibini o'rganayotgan jarayonda talabaga transport qilinadigan cholg'ular haqida ma'lumot beriladi. Transport qilinadigan cholg'ular partiyasini o'zlashtirish uchun har xil misollar keltiriladi. Estrada-simfonik cholg'ulari orkestri tarkibiga kiruvchi cholg'ulardan oddiydan murakkabga bosqichma-bosqich o'rgatiladi.

17-mavzu. Cholg'ularning texnik imkoniyati.

Cholg'ularda ijro etishni o'rganayotgan jarayonda talabaga ular haqida ma'lumot beriladi. Cholg'ularining texnik imkoniyatlarini o'zlashtirish uchun har xil misollar keltiriladi. Damli yoki simfonik orkestri tarkibiga kiruvchi cholg'ulardan oddiydan murakkabga bosqichma-bosqich o'rgatiladi.

18-mavzu. Asar muallifi bilan tanishish.

Talabalarga asar kompozitorining ijodiy faoliyati bilan tanishtiriladi. Ularning ijodi asar ijrosining mukammal bo'lishiga yordam beradi. Talabalarning tasavvurini oshiradi.

4.Modul. Dasturiy asarlar

19-mavzu. Romantizm maktabi namoyondalari asarlari bilan tanishish.

Romantizm maktabi namoyondalarining hayoti va ijodiy faoliyati (F. Shubert, F. Mendelson, F. Shuman va boshqalar) haqida tushunchalar beriladi. Romantizm oqimi to'g'risida turli adabiyotlar bilan tanishtiriladi. Yirik shakldagi asarlar: simfoniya, uvertura, fantaziya kabilarni o'rganish va tashlil qilishga ahamiyat beriladi.

20-mavzu. Dasturiy asarlar ustida ishlash.

Dasturiy asarlar mazmunidan kelib chiqib, partiture tahlil qilinadi. Bu asarlar ma'lum bir mazmunga yo'naltirilganligi uchun musiqiy jumlar, harakteri va

dinamikasi ustida ishlanadi. Asarning mazmunidan kelib chiqib qo‘l harakatlari ustida alohida mashqlar beriladi.

21-mavzu. Asarning badiiyligini talqin etish.

Badiiy obrazli ijroga erishish harakatlari – ijro jarayonida musiqaning badiiy obraz jihatlarini yaratib berishdan boshlanadi. Ularning vazifasi: dirijyor tomonidan maqsad qilib qo‘yilgan obrazli yasvirlarni sozandalar uchun yetarli tasavvurda yetkazib berishdir. Badiiy obrazlarni yaratish ularni sozandalarga yetkazib berish, dirijyorni obrazlarni qay darajada fikrlashi va ijodiy tasavvurini kengligiga bog‘liq.

22-mavzu. Asarda jumla.

Musiqiy jummalarni o‘rgatish jarayonida ohangdagi musiqiy fikrlarni ijro etib undagi uzviylikni tushuntirish kerak bo‘ladi. Yangi jummalarni partituranidan topish va anglab qo‘llarda uni ifoda etish ko‘nikmalari beriladi. Qolaversa, asardagi jummalarning harakteri, dinamikasi va shtrixlarni inobatga olgan holda talablar qo‘yiladi.

23-mavzu. Sinkopa

Sinkopa deb taktdagi kuchli yoki kuchsiz xissaning bir qismini ajratib Sinkopa deb taktdagi kucnil yoki kucnsiz xissaning bir qismini ajraio chalish uslubiga aytiladi. Sinkopa 3 xil ko‘rinishga ega. Kuchsiz xissalarda keluvchi teng xissali sinkopalar, xissalar orasida paydo bo‘luvchi xissalararo sinkopalar, xissalar ichida paydo bo‘lib, xissadan tashqariga chiqmaydigan xissalar ichidagi sinkopalar. Sinkopalarni talabalarga o‘rgatish mobaynida amaliy mashqlar, asardan parchalar beriladi.

24-mavzu. Punktir ritm.

Punktir ritmni talabalarga o‘rgatish mobaynida amaliy mashqlar, asardan parchalar beriladi. Asarlarda uchraydigan bunday ritmlarni talabalarga singdirish hamda ularni to‘g‘ri ijrosiga erishiladi.

5-Modul. Orkestr bilan ishlash.

25-mavzu. Orkestr bilan amaliy tanishuv.

Mazkur talabga talabalarni kasbiy yo‘naltirish borasidagi chuqurlashtirilgan mashg‘ulotlarni olib boriladi. Amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun yuqori zehn va iqtidor talab etiladi.

. 26-mavzu. Orkestr ijrosida ansamblga erishish

Orkestr bilan repititsiyalar olib borish jarayonida guruhlar orasidagi ansamblga erish kerak bo‘ladi, buning uchun xar bir guruhdagi shtrixlar, dinamikalar tovush va sifati ustida ishlanadi.

27-mavzu. Orkestr guruhlaridagi shtrixlar to‘g‘ri ijrosiga erishish

Shtrixlar turli ko‘rinishda bo‘lib, ularning ijro etish uslublari xam har xildir. Masalan ijrochilik amaliyotida tez-tez uchraydigan detashe, stakkato va legato shtrixlari

o'rganiladi. Asar ijrosi jarayonida turli ko'rinishdagi shtrixlar uchraydi. Talaba dirijyorlar uchun nafaqat bir shtrix harakatlarini uddalash balki ena ctıla ketma-ket kelgan turli shtrixlarga mahorat bilan o'tish yo'llarini ham mashg'ulotlar davomida o'zlashtiriladi.

28-mavzu. Orkestr guruhlarida ansamblga erishish.

Talabalarning ijro etish uslublari har xil. Masalan ijrochilik amaliyotida tez-tez uchraydigan detashe, stakkato va legato shtrixlari o'rganiladi. Asar ijrosi jarayonida turli ko'rinishdagi ifodalar uchraydi. Talabalar bilan ishlashda ularda guruhlarini eshitish qobiliyatini shakllantirish uchun mashg'ulotlar o'zlashtiriladi.

29-mavzu. Murakkab asarlarni ijro etish.

Murakkab asarlarni ijro etishda ularning shakli va janri haqida ma'lumot beriladi. Talabalarning ijro mahoratini oshirish bilan birgalikda nazariy bilimlar ham beriladi.

30-mavzu. Uvertyura.

Uvertyura odatda orkestr sinfi ko'p o'rganiyadigan asarlardan hisoblanadi. Ijro etishda ularning shakli va janri haqida ma'lumot beriladi. Talabalarning ijro mahoratini oshirish bilan birgalikda nazariy bilimlar ham beriladi.

6-Modul. Jo'rnavozlik san'ati

31-mavzu. Murakkab hissalar.

Bitta kuchli va nisbatan kuchli hissalar bor sxemalar murakkab turini tashkil qiladi: 4/16, 4/8, 4/4, 4/2, 6/8, 6/4, 9/16, 9/8, 9/4, 12/6, 12/8, 12/4. Murakkab o'lchovli taktlarda kuchlichli va nisbatan kuchli hissalar bor. Har bir taktning birinchi bo'lagi asosiy xissa deb hisoblanadi. Talabdan kelib chiqib talabaga murakkab o'lchovlarning sxemalarini ijro etish uchun vazifalar beriladi.

32-mavzu. Orkestrda transport qilinuvchi cholg'ularning partiyasini ijro etish ko'nikmalari.

Orkestr tarkibini o'rganayotgan jarayonda talabaga transposrt qilinadigan cholg'ular haqida ma'lumot beriladi. Partituralardan transport qilinadigan cholg'ular partiyasini o'zlashtirish uchun xar xil misollar keltiriladi. O'zbek xalq cholg'ulari orkestri tarkibiga kiruvchi cholg'ulardan oddiydan murakkabga bosqichma-bosqich o'rgatiladi.

33-mavzu. Jamoadagi umumiy dinamik tovushning mutanosibligiga erishish

Jamoa rahbari bo'lganligi sababli qo'llardagi texnik ijro bilan birga, psixologik tayyorgarlikka ega bo'lishi ham juda muhimdir. Dirijyor psixologiyasi butun jamoa uchun katta ahamiyatga ega. Uning qanday holatda bo'lishi mashg'ulot hamda konsert jarayonlariga katta ta'sir o'tkazadi. Shu sababli ushbu modulda, modulda, amaliy nashg ulot jarayonlaridagi dirijyor psixologiyasini o'rganishga katta ahamiyat beriladi

34-mavzu. Ijroda musiqiy obrazlarni ifoda etish.

Badiiy obrazli ijroga erishish harakatlari - ijro jarayonida musiqaning badiiy obraz jihatlarini yaratib berishdan boshlanadi. Ularning vazifasi: dirijyor tomonidan maqsad qilib qo'yilgan obrazli tasvirlarni sozandalar uchun yetarli tasavvurda yetkazib berishdir. Badiiy obrazlarni yaratish va ularni sozandalarga yetkazib berish, dirijyorning obrazlarni qay darajada fikrlashi va ijodiy tasavvurini kengligiga bog'liq.

35-mavzu. Partituraladagi guruhlarning garmonik ohangdoshligini fortepianoda ijro etish.

Bu talabga estrada orkestri jamoalari tarkibiga kiruvchi cholg'ular o'rgatiladi. Bunda transport qilinuvchi cholg'ular haqida to'liq ma'lumot beriladi. O'zbek xalq cholg'ulari orkestri-transport qilinadigan va transport qilinmaydigan cholg'ularga bo'linadi. Yozilgan notani chalganda boshqa ohangdoshlik (tonallik) eshitilsa, cholg'u birinchi guruhga mansub hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda boshqa orkestr tarkibidagi cholg'ularni xam ikki guruhga bo'lib o'rgatilinadi.

36-mavzu. Partituraladagi polifonik ovozlarni ijro etish.

Polifonik ovozlarni ijro etish murakkab jarayon hisoblandi. Ayniqsa talabalar bilan ishlaganda dinamik muvozanatni saqlagan holda ularni guruhlar orasidagi kanon va imitatsion yo'llarni to'g'ri taqsimlashga erishishga e'tibor qaratiladi.

7-Modul. Mashg'ulotlarni tashkillashtirish

37-mavzu. Aralash o'Ichovlar

Aralash o'Ichovlar qatoriga oddiylarning murakkablari bilan yoki murakkablarni oddiylari bilan o'zaro qo'shilgan birikmalari kiradi: $5/16$, $5/8$, $5/4$, $5/2$, $7/16$, $7/8$, $7/4$, $7/2$, $10/6$, $10/8$, $10/4$, $10/2$, $11/8$, $11/4$, $11/2$. Shu o'Ichovlar sxemalarini puxta o'rganish uchun mashqlar va asarlardan parchalar beriladi.

38-mavzu. Orkestr mashg'ulotlarini tashkillashtirish

Ushbu talab bakalavriyatning so'nggi bosqichida bo'lib, asosan konsertlarga tayyorgarlik ko'rish mashg'ulotlari bilan bog'liq. Bunda talabaga orkestr bilan ishlash jarayonida ko'proq mustaqillikka erishish uchun harakat qilinadi.

39-mavzu. Asarda tovush, - ohang, garmoniya, polifoniya

Polimetriya va poliritmiyaga ega bolgan musiqiy asarlarni dirijyorlik qilish, talabaning maxsus dirijyorlik harakatlarini yaxshi o'zlashtirishini nazarda tutadi. talaoaning maxsus dirijyorlik harakatlarini yaxshi Qolaversa, bu yangi muhim bosqichga otilganidan dalolat beradi. Qolaversa, ou yangi Mashg'ulotlarida zamonaviy esa kompozitorlarning asarlarini o'rganadi.

40-mavzu. Orkestrda ohanglar yo'nalishlarini aniqlash

Orkestrda ohanglar yo'nalishiga erishish harakatlari - ijro jarayonida musiqaning badiiy obraz jihatlarini yaratib berishdan boshlanadi. Ularning vazifasi: dirijyor tomonidan maqsad qilib qo'yilgan obrazli tasvirlarni sozandalar uchun yetarli

tasavvurda yetkazib berishdir. Badiiy obrazlarni yaratish va ularni sozandalarga yetkazib berish, dirijyorning obrazlarni qay darajada fikrlashi va ijodiy tasavvurini kengligiga bog'liq.

41-mavzu. Fantaziya

Fantaziya janrida yozilgan asarlar orkestr sinfi mahoratini ochib beradi. Rahbar talabalarga templarni tez-tez o'zgarib turishidagi qiyinchiliklarni tushuntirishi lozim. Amaliy mashqlar orqali o'rganiladi.

42-mavzu. Rapsodiya.

Rapsodiy Rapsodiya janrida yozilgan asarlar orkestr sinfi mahoratini ochib beradi. Rahbar talabalarga mavzular xarakterini tez-tez o'zgarib turishidagi qiyinchiliklarni tushuntirishi lozim. Amaliy mashqlar orqali o'rganiladi.

8-Modul. Zamonaviy asarlar

43-mavzu. Zamonaviy asarlar bilan tanishuv

Zamonaviy asarlar bilan tanishish talabiga XX-XXI asrlarda ijod etgan va etayotgan xorijiy kompozitorlarining asarlari o'rganiladi. Bunda partiturasidagi orkestr tarkibininig tuzilishi va shakl, mazmunning murakkabligidan kelib chiqib ko'nikmalarini hosil qilish kerak.

44-mavzu. O'zbekiston kompozitorlari asarlari bilan tanishuv

Bunday asarlar bilan tanishish jarayonida o'zbek kompozitorlarining asarlari o'rganiladi. Bunda partiturasidagi orkestr tarkibininig tuzilishi va shakl, mazmunning murakkabligidan kelib chiqib ko'nikmalarini hosil qilish kerak.

45-mavzu. Yakkanavoz asarlarni tanlash

Bunday asarlarni talabalar bilan tanlash jarayonida texnik imkoniyatlari o'rganiladi. Yakka ijroga tayyor talabalar tanalanadi. Orkestrda jo'navozlik qilish ko'nikmalarini hosil qilish kerak.

46-mavzu. Orkestr bilan amaliy mashg'ulotlar olib borish

“Orkestr” fanidan imtihoni dasturini tayyorlashda orkestr bilan amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Amaliy mashg'ulotlar reja asosida bo'ladi. Talabalar imtihon oldidan tinglovga tayyorgarlik qilish kerak bo'ladi.

47-mavzu. Konsert jarayoniga tayyorgarlik

Konsert- dirijyor oldindan tayyorlagan barcha ishlarini mahsulidir. Konsert vaqtida sozandalar o'zini turlicha tutadi. Rahbar o'zini va orkestr kuchini konsertga saqlab qolish uchun butun programmani chuqur diqqat, ammaichnaur taranglik bilan ijro qilmasa yaxshi bo'ladi. Talabani konsert jarayoniga e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan ko'nikmalar hosil qilish lozim. Sahna tajribasi: Jamoa bilan ishlash, kontsertlar va ijrolarda ishtirok etish.

48-mavzu. Konsert repertuari

Konsert repertuari - rahbar oldindan tassavur etishi lozim bo'lgan jarayon. Repertuar orkestrning imkoniyatlaridan kelib chiqan holda turlicha bo'ladi. Bunda jahon va o'zbek kompozitorlarining asarlari yakka va orkestr uchun mo'ljallangan bo'lishi lozim.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Orkestr sinfi" faniga kirish.
2. Nota o'qish mahorati
3. Orkestr ijrosida ansamblga erishish.
4. Orkestr guruhlaridagi shtrixlar to'g'ri ijrosiga erishish
5. Orkestr mashg'ulotlarini tashkillashtirish.
6. Asarda tovush, - ohang, garmoniya, polifoniya.
7. Orkestrda ohanglar yo'nalishlarini aniqlash
8. Orkestr bilan amaliy mashg'ulotlar olib borish.
9. Konsert jarayoniga tayyorgarlik.

Ushbu fan bo'yicha amaliy (guruhli) mashg'ulotlar olib borilishi nazarda tutiladi. Bu nazariy o'rganilgan bilimlarni, amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlab borishga yordam beradi. Xususan, amaliy mashg'ulotlarda har bir mavzu yuzasidan yangi talqinlarda ijro etib ko'rish, har bir talabaning individual xarakteridan kelib chiqib berilgan musiqiy asami mustahkamlash yaxshi natija beradi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Asarni mustaqil o'rganish .

Har bir ijrochi o'z cholg'usi bo'yicha partiyasini mustaqil o'rganadi. Tovush aniqligi, texnik o'zlashtirish, dinamika belgilari, artikulyatsiya ishlanadi.

Talabalarda mustaqil ravishda orkestr mashg'ulotlari olib borish ko'nikmalarini shakllantirish. Tayyorlangan ijro dasturini targ'ib etishga imkoniyat yaratish. Ijodiy izlanishlarga keng yo'l ochish. Professional badiiy jamoalar tarkibida ishtirok etishni amaliy yo'lga qo'yish. Badiiy didni rivojlantirish. Asarlar mazmunini chuqur his qilish. Kuylarning janri, shakli to'g'risida to'la ma'lumotlarga ega bo'lish

1. O'zbekiston va jahon zamonaviy kompozitorlari asarlari bilan tanishtirish.
2. Jo'navozlik mahoratini oshirish.
3. Yirik shakldagi asarlarni o'rganish.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- darslik, o'quv qo'llanma, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- talabaning ilmiy tekshirish (ijodiy) ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqur o'rganish.

	<p>Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta'lim resurslaridan, ta'lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamg'armasidan, repetitoriyalardan, o'quv laboratoriyalari, ovoz yozuvi studiyalari, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.</p>
3.	<p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Talaba bilishi kerak: Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Orkestr sinfining rivojlanish tarixi hamda zamonaviy musiqa madaniyati; orkestr ijrochiligi san'atiga oid asosiy ma'lumotlar, mashhur orkestrlarning ijodiy faoliyati va manbaalar haqida tasavvurga ega bo'lish: • Orkestrda o'tirish holati va ijro etish madaniyati, musiqiy oqimlar (klassitsizm, romantizm va h.k.); O'zbekiston va jahon kompozitorlari ijodiyotining yo'nalishlari va janrlari, uslublarini bilishi va ulardan foydalana olishi: • Orkestr guruhlarini bilan ishlash; asar partiyalarini o'zlashtirish; asami asamm ijrochilik nuqtai-nazaridan talqin etish; O'zbekiston zamonaviy musiqasidagi jarayonlarni tahlil etish va tanqidiy baholash ko'nikmalariga bo'lishi ega kerak.
4.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Amaliy mashg'ulotlar; • Audio va video yozuvlardan foydalanish; • Mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar, • Nota o'qish mahorati; • Konsert taqdimotlarni qilish; Individual loyihalar, • Jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid amaliy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil nanjalarini to'g'ri aks emra onsn,organiayolgan jarayooaqida usiaqu mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha imtihonni topshirish.</p>
6.	<p>VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Azimov K. O'zbekiston dirijyorlari. T.2001y. 2. Abdurahimova F. Orkestr sinfi. T. G`.G`ulom. 2012y. 3. G'ofurov M. Orkestr sinfi. T.2011y. 4. O'.Toshmatov,X.Beknazarov. Cholg'ushunoslik.T."Turon-Iqbol" nashriyoti.2018 y. 5. U.Mamajonov, Orkestr sinfi. Andijon 2020 y. 6. I.Quvvatov. Orkestr sinfi, Toshkent 2021 y. 7. H.Rajabov. Orkestr sinfi, Toshkent 2019 y. 8. J.Turatov. Orkestr sinfi, Toshkent,2012Y

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. “O‘zbekiston -2030 strategiyasi to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni
2. Mirziyoyev Sh.M.Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. 2017 yil
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda quramiz.2017 yil
4. Liviyev A. O‘zbek milliy cholg‘usozlik tarixi . T. 2005y.
5. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. T.1998y.
6. Shamaxmudova M. Xor dirijyorligi lug‘ati. T. 2009-y.
7. Shukurov J. Xor dirijyorligi. T. 2009-y.
8. “Cholg‘u ijrochiligi va musiqiy nazariy fanlar” kafedrasida kutubxonasi fondidagi partituralar.

Axborot manbalari

1. www.artist.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.edu.uz
4. <https://www.rcm.ac.uk/Conducting/>
5. <https://www.rcm.ac.uk/>

7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025 yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8.	<p>Fan/modul uchun mas’ullar: F.Ne‘matov— QDU, “Cholg'u ijrochiligi” kafedrasida o‘qituvchisi M.Kurbanova— QDU, “Cholg'u ijrochiligi” kafedrasida dotsent v.b.</p>
9.	<p>Taqrizchilar: S.Azizov — QDU, “Cholg'u ijrochiligi” kafedrasida mudiri, dotsent. F.Mo‘ydinov — QDU, “Cholg'u ijrochiligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi</p>